

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

## HAMZA HAKIMZODA NIYOZIY POETIKASI

Fazilat Mamadaliyeva

Namangan davlat universiteti, Musaqil izlanuvchi  
mamadaliyevafazilat322@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada XX asr boshlari badiiy tafakkur tarzini yangilashga hissa qo‘shgan shoir, nosir va dramaturg Hamza Hakimzoda Niyoziy she‘riyatiga xos alohida jihatlar tahlilga tortilgan.

**Kalit so‘zlar:** An’anaviy obraz, lirik kechinma, syujetli lirika, oshiq, ma’shuqa, raqib, novatorlik, traditsion tamoyil.

**Annotation:** This article analyzes the specific aspects of the poetry of the poet, prose writer and playwright Hamza Hakimzoda Niyoziy, who contributed to the renewal of the artistic thinking of the early 20th century.

**Keywords:** Traditional image, lyrical experience, plot lyrics, lover, mistress, rival, innovation, traditional principle.

**Абстрактный:** В статье анализируются отдельные аспекты поэзии Хамзы Хакимзаде Ниязи – поэта, прозаика и драматурга, способствовавшего обновлению художественного мышления в начале XX века.

**Ключевые слова:** Традиционный образ, лирический опыт, сюжетная лирика, возлюбленная, любовница, соперница, новаторство, традиционное начало.

Borliq va ma’naviy hayotda, jamiyat va tabiatda ro‘y beradigan, paydo bo‘ladigan barcha voqeliklar o‘zaro chambarchas bog‘langan, ma’lum bir qonuniyatga bo‘ysungan, shuning uchun hech birida asossiz o‘zgarish bo‘lmaydi. Bashariyatning o‘tmishiga, ilm – fan, san’at va madaniyat tarixiga qarar ekanmiz, yuksalish va rivojlanishdagi ana shu o‘zaro bog‘liqlikni yorqin ko‘ra olamiz. Darhaqiqat, o‘tmishsiz hozirgi zamonning, hozirgi zamonsiz kelajakning bo‘lishi mumkin emas. Ular o‘rtasida doimo uzluksiz aloqa bor[1.20]

Inson tabiatiga xos bo‘lgan jihatlardan biri - qiziquvchanligi. U o‘ziga kerakli bo‘lgan jamiki axborotlarni aql-idrok va his-hayajon yordamida egallaydi. Fan va texnika aniq qonuniyatlar bilan xalqqa tushunilishi biroz murakkablik tug‘diradi, biroq so‘z san’ati bo‘lgan adabiyot porloq quyosh singari barchaga barobar va tushunarli. Kasb – kori va bilim saviyasidan qat’iy nazar barcha u haqida munozara va muhokama qila oladi.

Millat adabiyoti uni vujudga keltirgan ommaning badiiy xotarasi sanaladi, bunda esa tarixiy -ma’rifiy, estetik va axloqiy xususiyatlar jamlanadi. Insoniyat kamolotida ajdodlar va avlodlar o‘rtasidagi aloqa, ma’naviy meros va vorislikni taminlashda adabiyot muhim ahamiyatga ega.

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Zamon va makon oralig‘ida yaratilgan ko‘ngil bitiklarida, o‘zigacha bo‘lgan an’analarning davom ettirilgani va ana shu an’analar asosida yangilik yaratilishini kuzatish mumkin. Bunda ijodorning o‘z hayoti davomida ro‘y bergan voqea – hodisalardan kuchli ta’sirlanish jaryonida hosil bo‘lgan his-tuyg‘ulari gavdalanadi. Bu haqda B.G. Belinskiy: *“Lirik asarda, har qanday poeziya asarida bo‘lgani singari, fikr so‘z bilan bayon qilinadi, lekin u fikr sezgi orqasiga yashiringan bo‘ladi va bizda mushohada uyg‘otadi, buni esa ongning ochiq va aniq tiliga ko‘chirish qiyin. Bu narsa shuning uchun ham qiyinki, sof lirik asar go‘yo bir kartinaga o‘xshaydi, lekin unda muhim narsa kartinaning o‘zi emas, u bizda, uyg‘otgan sezgidir[2.220].*

She’riyatda ham hayot, adabiyotda bo‘lgani kabi aniq obrazlar orqali gavdalan tiriladi. Biroq lirikada obrazlar asosan ijodkorning o‘y – kechinmalari asosida o‘ziga xos xususiyatlar orqali ko‘rsatiladi. Shu boisdan lirik asarning bosh qaxramoni ko‘p holatlarda muallifning o‘zi bo‘ladi. *Lirikaning bu xususiyati ko‘proq Navoiy, Lutfiy, Sakkokiy, Otoiy, Bobir, Nodira, Muqimiy, Furqat kabi klassik shoirlar ijodiga xos[2.154].*

Serqirra ijodkor Hamza Hakimzoda Niyoziy ham dastlabki ijodida mumtoz adabiyot salafalaridan namuna olib, qalam tebratdi. Masalan Alisher Navoiy qalamiga mansub bo‘lgan “Ayt” radifli g‘azaliga e’tibor bersak:

*Ey sabo, holim borib sarvi xiromonimg‘a ayt,*

*Yig‘larimning shiddatin gulbargi xandonimg‘a ayt.*

*Buki aning ahd – u paymonimg‘a men o‘lsam dag‘I,*

*Yaxshi fursat topsang, ul bat ahd – u paymonimg‘a ayt[8.14].*

Huddi shunga o‘xshash g‘azalni Hamza ijodida ham ko‘rish mumkin:

*Ey sabo, borsang mani arzimni sultonimga ayt,*

*Ko‘zlaringdin yosh to‘kub, daryoyi ummonimga ayt...*

*...Yo‘l yiroq, hajrida tashlab qo‘ymasun afgorni,*

*Jannati vasliga olgan hur - u gulmonimga ayt[7.55].*

Shoirning bu she’rida yor hajrida qiynalayotgan oshiq holati tasvirlanadi, u shunday holga tushganki, tuni bilan dard chekib, tongni qarshilagan va eng birinchi uchratgan tong shamolidan mashuqasiga o‘z holidan bayon etishini iltimos qilgan. Bunda shoir she’riyatning intoq san’atidan oqilona foydalangan shu bilan birga “daryoyi ummon” birikmasini ham qo‘llamoqdaki, bu bilan mahbubaning go‘zalligi cheksizligiga ishora qilinmoqda. Daryo – poklik, sahovat ramzi. Shu bilan birga uning obod etish va vayron qilish xususiyati haqida ham fikrlar uchraydi. Deyarli barcha xalqlarda daryo suvi insonni gunohlardan forig‘ etib, poklaydi, degan

# “IZLANISH SAMARALARI”

## №9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

qarashlar mavjud. Hatto ba’zi udumlarga ko‘ra, yangi yil bayramida, daryo sohilida turib tavba duolari o‘qishgan, go‘yoki, yuraklaridagi kir yuklarni suvga g‘arq qilishgan.

Olim Shomirza Turdimov tadqiqotlariga ko‘ra, daryo ikki olam, makon va zamon, oshiq va mashuqlik, yigitlik va erli, qizlik va ayollik, ko‘ngillar, taqdirlar o‘rtasidagi chegara ramziy ma’noni ifodalaydi[3.116].

Ammo bu joyda shoir o‘zining kechinmalari, his-tuyg‘ularini yozmoqda, deb o‘ylash, she’riyatni shu bilan bir qatorda badiiy adabiyotning mazmun mohiyatini noxolis va noto‘g‘ri talqin qilinishiga olib keladi. Shu narsa ayonki, lirik “men”ning asosi ijodkorning o‘z hayotidan olingan hodisalar emas, balki barcha insonlar hayotidan olingan voqea – hodisalar tashkil etadi. V.G.Belinskiy ham shoir lirik asarda o‘zi haqida, o‘zining “men”i haqida gapirganda ayni vaqtda umumiy narsa to‘risida - inson to‘grisida gapiradi deb yozganida lirikaning yuqoridagi kabi xususiyatlarini nazarda tutgan edi[2.222].

Yoki she’riyatdagi ikki inson o‘rtasidagi suhbat - diologik nutq shaklini olsak, uzoq o‘tmishdan buyon personajlar o‘rtasidagi munozarani, savol – javobni, o‘zaro suhbatni qisqa jummalarda “dedi”, “tedi”, “aydi” kabi so‘zlarning takror holda kelishi yordamida ifoda etish an’ana tusiga kirgan. Bu esa ilk bor Rabg‘uziyning “Qissasi Rabg‘uziy” asarida uchraydi. Shundan so‘ng bu usul keying davr yozuvchilari uchun an’ana tusini oldi. Masalan, Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonidagi Farxod va Xusrav o‘rtasidagi suhbat buning yorqin dalilidir:

*Dedi: “Qaydinsen, ey majnuni gumrah?!”*

*Dedi: “Majnun vatandin qayda ogah?”*

*Dedi: “Nedur sanga olamda pasha?”*

*Dedi: “Ishq ichra majnunluq hamesha”[9.3].*

Qo‘qon adabiy vakillaridan biri Gulhaniyning qalamiga mansub “Zarbul masal” asarida ham qushlar o‘rtasidaga baxs – munozaralarda buni yaqqol ko‘rish mumkin: “Ko‘rqush va Yapaloqqush o‘rtasidagi munozarada shunday tasvirlanadi: “Anda Ko‘rkush aydi:” Bor maqtansa topilur – yo‘q maqtansa – chopilur...Anda Yapaloqqush aydi: men sizni bilimlik va ma’nidin boxabar kishi faxmlar erdim...Anda Yapaloqqush aydi: burnog‘ilar masalidurkim “ bitar ishing boshig‘a yaxshi kelur qoshig‘a”[1.29]

Hamza ijodida ham bu an’ana davom etadi:

Aydim: Pari, man xastaga muncha jafo darkor emas,

Etmay qiyo boqmaslig‘ing, ortiq jazo darkor emas.

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Dedi kulib: Ey xasta qul, ma’shuq elini xuyi shul,  
Kim, dedi, ber sanga ko’ngil, ket mojarolar darkor emas.

Ya’ni, oshiqning ishq sababli turli mojarolarga o’ralashib qolishi, mashuqaning esa bunga bee’tibor bo’lishi ta’sirli ifodalanadi. Go’zal yorga “pari” deb murojaat qilinishi esa, maxbubaning go’zallikda tengsiz ekanligini anglatadi.

“Pari – Qadimgi tasavvurlarga ko’ra, pari olovdan yaratilgan. Uni oddiy ko’z bilan ko’rishning imkon yo’q. Pari o’zining go’zalligi va latofati bilan odamlarni sexrlab, aqldan ozdiradi. Parilar turli shakl va qiyofalarga kirish imkoniga ega. Ular, ko’pincha, sohibjamol ayol qiyofasida namoyon bo’ladi. Sharq she’riyatida go’zallik va husn-u jamol timsoli”[3.119].

Hayotda hech bir voqelik to’satdan ro’y bermaganidek, barcha yangi narsalar eskisidan unib chiqadi, so’nggi hodisalar avvalgilari bilan izohlanadi.

*Zamondoshlarining xotirlashicha, Hamza yoshligida o’zi o’qigan Navoiy, Fuzuliy, Muqimiy va boshqa shoirlarning she’rlari maqomida ashulalar to’qib, kuylar yaratgan. Mahalladagi o’rtoqlarini to’plab bu kuylarni ijro etgan va ularga ham o’rgatgan*[2.116]. Bundan ko’rinib turibdiki, Hamza ijodining ilk davrlarida ana shunday yuksak so’z san’atkorlarining ta’siri yuqori bo’lgan. Biroq adabiyotning mazmun – mohiyatiga ijodkorning g’oyasi, shu bilan birga uning estetik idealiga uzviy bog’langan an’analar eskirgani kabi tasviriy vosita, uslub va badiiy tilga xos bo’lgan an’analar ham eskirishi, o’zining asl shakl va xususiyatini tamoman o’zgartirishi mumkin. Bu esa tasodifan, o’z-o’zidan bo’lmaydi, bunda xalqning turmush tarzi o’zgarishi, uning iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy hayotining yangi bosqichga o’tishi kabi omillar sabab bo’ladi.

“Ijodiy faoliyati ma’rifatparvarlikdan, demokratik go’yalarni kuylashdan va yorqin istiqbolni orziqib kutishdan iborat bo’lgan Zavqiy, Oraziy, Faqiriy, Hamza, Avaz, va ularning safdoshlari xalq erkini qutlab yozgan ko’pgina she’rlarida o’zlariga yaxshi tanish g’azal, muhammas, masnaviyga murojaat etadilar. Ular davrasida Hamza Hakimzodaning tranditsion formalarda yondashuvi alohida diqqatga sazovordir.

Hamzaning zamondoshlari S. Ayniy, So’fizoda, Chokar, Mutrib va boshqa shoirlar tranditsiya(ijodiy an’analarini) yangilashga harakat qilganlar”[1.20].

Hamzaning “Devon”iga kiritilgan ga’zallarida an’anaviy obrazlar; oshiq, ma’shuq va raqib keltirilgan bo’lsa, keyingi ijod namunalarida ana shu obrazlarning yangi ma’no kasb etganligini ko’ramiz. Masalan:

Nigoro, bo’yla jahl ila g’azabni oti noz o’lmaz,  
Raqibdin o’zga bu atvora hech kas sarfarozi o’lmaz.

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Muhabbat ahlini jononasi bing tarki azm etsa,  
Haqiqatdin asar bo‘lsa anga tarki majoz o‘lmas.( B-78).

“ Tarixdan ma’lumki, arablarning ta’siridan so‘ng to XX asrning boshlariga qadar nazmimiz asosan aruzda yozilib kelingan, XX asrga kelganimizda esa aruz tarixiy vazn darajasiga tushib qoldi. Uning o‘rnini avvalo barmoq, qolaversa, sarbast egalladi”[4.88].

“Bir zarra bormu aql-u hushimiz,  
Haqni tinglamas o‘ldi go‘shimiz.  
Tilda bandalik da’vo qilamiz,  
Amriga na deb yo‘qdur hushimiz.  
Yetishdi hamon o‘qurga zamon,  
Endi ilmsiz yashamoq gumon”[6.22]

Darhaqiqat, Hamzaning keyingi ijod namunalarida nafaqat obraz, balki vazn ham yangilandi. Chunki adabiyot bu - shaxs va millatning yuzi va ko‘zidir. Harqanday ijodkor jamiyatdan ayri holatda ijod qila olmaydi.

Aytish mumkinki, Hamza Hakimzoda Niyoziyning ilk she’rlarida oshiqning maqsadi ma’shuqaning vasli, raqibning ishi oshiq va ma’shuqaning o‘rtasiga nifoq solmoq bo‘lsa, keyingi she’rlarida millatni ma’rifatga chorlash mavzusi yatakchilik qiladi. Obrazlarda esa oshiqning o‘zi – Hamza, ma’shuqa esa xalq, raqib – g‘aflat sifatida tasvirlangan..

## Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. M.K.Nurmuhammedov, Adabiyot nazariyasi, -Toshkent: 1979-yil, B-20.
2. O‘zbek adabiyoti masalalari, -Toshkent: 1962-yil, B-220.
3. Dilrabo Mingboyeva, Timsollar tilsimi. Toshkent: Adabiyot 2022-yil, B-116.
4. Ulug‘bek Hamdam. Badiiy tafakkur tadriji. Toshkent: 2002-yil, B-8.
5. Laziz Qayumov, Asr va Nasr, -Toshkent: 1975-yil, B-88.
6. Hamza Hakimzoda Niyoziy, Uzilgan chechaklar, -Toshkent: 1986-yil, B-22
7. Hamza Hakimzoda Niyoziy, Devon, -Toshkent: 1988-yil, B-55.
8. Tafakkur.uz
9. <https://kutubxonachi.uz/documents/asar/adabiyot/o-zbek/pdf/alisher-navoiy/farhod-va-shirin/#gsc.tab=0>